

NAQSH SAN'ATI TARIXI

Nishanov Ismoil Ibrohimovich

Namangan muhandislik texnologiya instituti Dizayn kafedrası assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7228341>

Annotatsiya: Ushbu maqolada naqsh tushunchasi haqida umumiy ma'lumotlar, naqsh tuzish va uni tasvirlashturlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, naqsh, islamiy naqsh, grih naqsh.

Аннотация: В этой статье представлена общая информация о понятии паттерна, основы построения паттерна и его описания.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, узор, интимный узор, узор Гриха.

Abstract: This article provides general information about the concept of fine art, and also discusses in detail the genres of fine art using images.

Keywords: Fine art, landscape, still life, painting, inanimate nature.

Naqsh (arab. — tasvir, gul) — qismlari muayyan tartibda bir maromda takrorlanishidan hosil bo'ladigan handasiy shakllar, o'simlik, qush, hayvon va boshqalarning uslublashtirilgan tasvirlaridan tarkib topgan bezak. Turli narsalar me'moriy inshootlar asarlarida keng qo'llanadi. Narsaning sirtini bezayotgan naqsh uning tuzilishini yuzaga chiqaradi va uning badiiy sifatini oshiradi. Naqsh yo mavhum shakllardan tuziladi, yo aniq mavzulardan uslublashtiriladi. Ishlanayotgan xom ashyosiga ko'ra, naqsh ishlashning turli-tuman uslub va usullari mavjud: o'yma, bo'yama, chok yordamida tikma, zarb qilib, quyib, qadama va boshqalar.



1-rasm. Naqsh turlari

Naqshning paydo bo'lishi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Naqsh tarixi insoniyatning badiiy madaniyati kabi qadimiydir. Arxeologik materiallar naqshning jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Metall, sopol buyum, idish, qurollar paleolit, neolit davrlarida oddiy handasiy shakllar qatorida o'simliksimon naqshlar bilan ham bezatilgan. Naqsh turli o'lkalar, turli xalqlarda geografik muhit, o'simlik va hayvonot dunyosi, madaniyati ta'sirida turlicha rivoj topgan. Yevropada turli davrlarda xukmron

bo'lgan badiiy uslublar naqshga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Uyg'onish davrida, ayniqsa, yuksak jozibadorlikka erishgan. XIX asrning oxiridan boshlab shu davrda vujudga kelgan turli okimlar naqshni atayin kam ishlatdi, xatto undan butunlay voz kechishgacha bordi.



2-rasm. O'zbek milliy naqshlari

Naqsh san'ati Markaziy Osiyo madaniyati tarixida juda qadimdan bo'lib, o'ziga xos namunalari bilan ajralib turadi. Arxeologik topilmalar naqshning xilma-xil va rang-barang namunalaridan darak beradi. Me'moriy yodgorliklarda naqshning ancha mukammal, o'ziga xos va yuksak san'atkorlik bilan yaratilgan nusxalarini uchratish mumkin. Xalq amaliy san'atining har bir turida (xususan, kashtado'zlik, gilamchilik, o'ymakorlik, ganchkorlik, naqqoshlik kabi) naqshning shakliy imkoniyatlari naqadar keng va boy ekanligi yaqqol kuzatiladi. O'rta Osiyoda naqshlar keng tarqalgan bo'lib, ular, asosan, 2 turga bo'lina-di: handasiy shakl va chiziqlardan iborat eng murakkab naqsh turi — girih, keng tarqalgan o'simliksimon naqsh — islmiy. Har bir naqshning o'z qonun-qoidalari bor: taqsim va bo'laklar aniq o'lchamda, uyg'un bo'lishi, ranglar did bilan tanlangan, o'zaro mutanosib bo'lishi lozim. Bu naqqosh ustadan katta maxorat, malaka talab qiladi. O'rta Osiyoda eng qadimiy naqsh namunalari, asosan, me'moriy inshootlarda saqlangan; naqshning ajoyib namunalari ganch, yog'och va toshni o'yib, ba'zan bo'yab ishlangan.

Naqsh hisobiga keng taraqqiy etdi, naqqoshlik jadal rivojlandi.

Shu davrda me'morlikda g'ishtni turlicha qalab naqsh hosil qilish san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Binolarning yog'in tushmaydigan joylari ganch va yog'och o'ymakorligi, bo'yama naqshlar bilan bezatildi. Jumladan, me'moriy yodgorliklardan O'zgandagi maqbaralar g'ishtin nafis naqshlangan. XIV—XV-asrlarda koshinkoriy naqshlar yaratildi Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklari davrida xalq ustalari san'ati ayniqsa shaharlarda o'sdi, naqsh, naqqoshlik ham yanada rivojlandi. Buxoro naqshi eng murakkab, mukammal va jozibador bo'lib, ko'p asrlik ijodiy mehnat an'analari samarasidir; Naqsh bezak bo'lish bilan birga binokorlikning ajralmas qismiga aylangan. Juda murakkab girihlar puxta o'lcham bilan ishlangan, gul naqshlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xiva naqshi yulduzlar hosil qiluvchi girihlar orasida o'simliksimon gullarni mahorat

bilan joylashtirilishi, barg shaklidagi bezaklarning ko'pligi, o'simliksimon tasvirlar zich, ko'p va turli-tumanligi bilan mashhur. Farg'ona naqshi Marg'ilon, Xo'jand, Qo'qon, Farg'ona, Namangan va boshqa shaharlarda vujudga kelgan uslublardan iborat. Me'moriy yodgorliklar XIX asrda yaratilgan naqshlarda sodda rang-baranglik naqsh qismlarining ancha jo'nligi ko'zga tashlanadi. Farg'ona naqshining o'ziga xos jihatlari: bino devorlariga mehrobi namoyonlar ishlanib, ular hoshiya naqsh bilan bir-biridan ajratiladi, hoshiyalar orasiga girih, qolgan qismlarga o'simliksimon gullar ishlanadi. Ularda Buxoro, Xiva naqshlarining ta'siri seziladi. XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi naqshlarda yevropa naqshlarining ham ta'siri bor. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida yaratilgan ro'zg'or buyumlari, asbob va qurollar, uy va inshootlarni naqshsiz tasavvur qilish qiyin. O'rta Osiyoda ishlangan bezakli buyumlar, matolar xalqaro bozorlarda ham qadrlangan. Turli o'lkalar bilan madaniy-iqtisodiy aloqalar naqshning rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Narodnoye dekorativnoye iskusstvo O'zbekistana, Albom, M., 1955; Rempel L.I
2. Arxitekturniy ornament O'zbekistana, T., 1967;
3. Raufov Yo. Naqqoshlik, T., 1973;
4. Zohidov P., Me'mor olami, T., 1996;